


V. XIZMATLAR

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda uchlamchi sektor, ba’zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2021- yil 1 iyul holatiga ko‘ra, 35 617 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 20 769 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2021- yil 1 iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 15 913 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes sub’ektlarini tashkil etadi. 2021- yil 1 iyul holatiga ko‘ra, ularning ulushi 76,6 %ni tashkil etdi.

**2021- yil 1 iyul holatiga xizmatlar sohasiga jalg qilingan,
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2021- yil 1 iyul holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (31,9 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 1,3 %ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 %ni tashkil etdi.

**2021- yil 1 iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 930,2 mld. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,9 %), transport xizmatlariga (21,3 %), moliyaviy xizmatlarga (17,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (4,8 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 1 318,8 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2021- yil yanvar-may oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 184,3 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (336,2 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (273,3 mlrd. so‘mga), moliyaviy xizmatlar (271,5 mlrd. so‘mga), hamda ta’lim sohasidagi xizmatlar (96,2 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lumot uchun: 2020- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 215,1 mlrd. so‘mga, savdo xizmatlari – 277,9 mlrd. so‘mga, transport xizmatlari 259,9 mlrd. so‘mga va ta’lim sohasidagi xizmatlar – 74,2 mlrd. so‘mga oshgan.

**2021- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mldr.so‘m</i>	<i>O’tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
Xizmatlar – jami	5 930,2	117,4
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	281,3	119,9
moliyaviy xizmatlar	1 014,6	130,5
transport xizmatlari	1 260,7	112,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 210,6	111,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	157,9	103,5
savdo xizmatlari	1 893,9	108,7
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	156,3	122,4
ta’lim sohasidagi xizmatlar	250,2	157,6
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	79,0	118,7
ijara xizmatlari	162,6	123,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	198,9	121,4
shaxsiy xizmatlar	197,6	120,3
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	72,0	109,0
boshqa xizmatlar	205,2	128,8

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlarida 157,6 %, moliyaviy xizmatlarda 130,5 %, boshqa xizmatlarida 128,8 %, ijara xizmatlarida 123,4 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari 103,5 %, savdo xizmatlar 108,7 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 109,0 % va transport xizmatlari 112,8 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 31,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,3 %, moliyaviy xizmatlar 17,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,8 % egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 893,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 336,2 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2021- yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 85,4 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,7 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %




2021- yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 281,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 48,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,0 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 92,9 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 7,1 % ga to'g'ri keladi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 014,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 130,5 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (86,9 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 250,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 157,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 157,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,7 % ga yetdi.


**2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Qashqadaryo viloyat	5930,1	117,4
Qarshi sh.	1904,3	115,1
Shahrisabz sh.	295,9	112,5
G'uzor	256,1	112,8
Dehqonobod	197,6	120,2
Qamashi	264,6	113,1
Qarshi	332,9	121,8
Koson	385,6	113,8
Kitob	393,3	114,4
Mirishkor	250,0	115,8
Muborak	307,9	112,5
Nishon	211,7	114,4
Kasbi	224,7	113,0
Chiroqchi	335,4	112,0
Shahrisabz	278,0	121,0
Yakkabog'	292,1	120,6

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1 904,3 mlrd. so'm), Kitob (393,3 mlrd. so'm), Koson (385,6 mlrd. so'm), Chiroqchi (335,4 mlrd.so'm) va Qarshi t (332.9 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (224.7 mlrd. so‘m) Nishon (211.7 mlrd. so‘m), va Dehqonobod (197.6 mlrd. so‘m) tumanlarida kuzatilmogda.


2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi (121,8 %), Shahrisabz (121,0 %) tumanlari va Qarshi shahri (115,1 %) da kuzatildi.

Zamonaviy O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

**2021- yil yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (32,1 %), Koson (6,5 %), Kitob (6,6 %), Chiroqchi (5,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Mirishkor (4,2 %), Kasbi (3,8 %) va Dehqonobod (3,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o‘sishi kuzatilmoqda. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 945,0 ming so‘mga oshib, 1769,9 ming so‘mga teng bo‘ldi.

Tumanlar orasida bu ko‘rsatkich Qarshi shahrida 6 815,5 ming so‘mdan, Chiroqchi tumanida 794,2 ming so‘mgacha oralig‘ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning maksimal o‘sishi Chiroqchi (122,6 %), Kitob (120,2 %), Yakkabog‘ (117,4 %) tumanlarida va Qarshi shahar (128,8 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo‘limgan o‘sish sur’atlari Mirshikor (104,5 %), Muborak (104,7 %), Qarshi (105,2 %) tumanlarida va Shahrisabz (103,9%) shahrida qayd etildi.